



## ASOSIY VOSITALARNI TEXNIK XOLATINI TAHLIL QILISH

**Matrasulov Baxodir Erbo'tayevich**

*Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi*

**Yo'ldoshev Dilshod Murodboy o'g'li**

*Guliston davlat universiteti talabasi*

**Tajiboyev Davron Nuriddin o'g'li**

*Guliston davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Korxonaning asosiy vositalari ulardan foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadida tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida bir qator koeffitsientlar hisoblanadi va asosiy vositalarning holatiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi. Hisob-kitoblar asosida asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida boshqaruva qarorlari qabul qilinadi. Hozirgi kunda, yurtimizda ko'plab korxonalar o'z moddiy hamda nomoddiy resurslardan unumli foydalangan holda milliy bozorni egallab jahon bozorlarga ham o'z qadamlarini qo'yamoqda. Albatta, bunda korxonalar aktivlar samaradorligiga erishishiga ularning moddiy resurslari bo'lgan asosiy vositalar tahlili muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** Asosiy vositalar, asosiy vositalarni texnik tahlili, tahlil maqsadi tahlil vazifalari, texnik tahlil.

**Kirish:** Jahon miqyosida aktivlarni tahlil qilishda turli xil yondashuvlar mavjud. Bunda korxonalarning moliyaviy tahlilchilari ushbu yondashuvlarga asoslanib tahlil amalga oshiradi va korxona boshqaruva jarayonida qo'l keladigan xulosalarni beradi. Korxona boshqaruvchilari esa bu xulosalarga tayangan holda boshqaruvni amalga oshiradi.

**Tahlil va natija.** Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida korxonalarning asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta'minlanganligini o'rganish bilan bir qatorda, ularning texnik holatiga ham baho berib boriladi. Odatda asosiy vositalar tarkibida yil davomida o'zgarishlar ro'y beradi. Yangi asosiy vositalarni kirimi tufayli asosiy vositalar ortib boradi. Eskirgan asosiy vositalarni ishlab chiqarishdan chiqarish tufayli asosiy vositalar kamayishi mumkin. Bunday tabiiy holatlarning ro'y berishi asosiy vositalarning texnik holatini tahlil etishni taqozo etadi. Asosiy vositalarning texnik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagilar hisoblanadi:

- asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi;
- asosiy vositalarning eskirish darajasi.

Asosiy vositalarning texnik holatini belgilovchi umumiyo ko'rsatkichlardan biri ularning eskirish koeffitsiyentidir. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyentini aniqlash uchun asosiy vositalarning eskirish summasini (balans passivining 1-bo'limi) ularning boshlang'ich qiymatiga (balans aktivining 1-bo'limi) bo'linadi.



Odatda, asosiy vositalarning eskirish koyeffitsiyentining kamayishi ularning texnik holatini yaxshilanganligidan dalolat beradi. Asosiy vositalardan uzlusiz ravishda foydalanish natijasida ularning eskirish darajasi oshib boradi. Shuning uchun asosiy vositalarni yangilash kerak. Asosiy vositalarni yangilash koyeffitsiyentini aniqlash uchun yangi kelgan asosiy vositalar summasini asosiy vositalarning yil oxiriga bo‘lgan qiymatiga bo‘lish kerak. Asosiy vositalarni chiqib ketishi koyeffitsiyentining hisoblash uchun esa chiqib ketgan asosiy vositalar summasini ularning yil oxiriga bo‘lgan qiymatiga bo‘lish kerak.

Asosiy vositalarning texnik holatini har tomonlama va chuqur tahlil qilish uchun asosiy vositalarning qo‘sishimcha o‘sish hamda chiqib ketishining o‘rnini qoplash (kompensatsiya) koyeffitsiyentlari ham aniqlanadi.

### **Asosiy vositalarining texnik holati tahlili**

Asosiy vositalar	Boshlang‘ich qiymati, ming so‘m	Eskirish qiymati, ming so‘m	Qoldiq qiymati, ming so‘m	Eskirish darajasi, %	Yaroqlilik darajasi, %
1. O‘tgan yili	166100	85118	80982	51,24	48,76
2. Hisobot yili	180222	88969	91253	49,36	50,64
3. Farqi, (+,-)	+14122	+3851	+10271	-1,88	+1,88

Asosiy vositalarning qo‘sishimcha o‘sish koeffitsiyentini aniqlash uchun yangidan kelgan va chiqib ketgan asosiy vositalarning navbatidan chiqqan qoldig‘ini yangi kelgan asosiy vositalarning miqdoriga bo‘lish kerak. Asosiy vositalarning chiqib ketgan qiymatining o‘rnini qoplash koyeffitsiyenti chiqib ketgan va yangidan kelgan asosiy vositalarning nisbati orqali aniqlanadi. Yuqoridagi jadval ma’lumotlari asosida biz tahlil qilayotgan xo‘jalik subyektining asosiy vositalari texnik holatiga baho berish mumkin bo‘ladi. Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, korxonada joriy yilda asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi o‘tgan yilga nisbatan 1,88 % ga ko‘tarilgan bo‘lib, jami asosiy vositalarning 50,54 % ini tashkil etmoqda. qolgan 48,76 % asosiy vositalar o‘zining xizmat muddatlarini o‘tab bo‘lgan hamda eskirgan asosiy vositalar tashkil etadi. Korxonada asosiy vositalarning texnik holati ijobjiy tomonga o‘zgargan bo‘lsada, asosiy vositalarning umumiylar texnik holati yetarli darajada, deb baholay olmaymiz. Chunki asosiy vositalarning teng yarmiga yaqini eskirganligi bu yaxshi natija emas. Shu sababli ham korxona ma’muriyatini asosiy vositalarini yanada ko‘proq qismini yangilab borish choralarini izlab topishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Xulosa:** Hozirgi davrda mamlakatni iqtisodiyotini o’sishiga uni barqaror bo‘lishiga asosan ishlab chiqarishdagi yutuqlar korxona va tashkilotlardagi fan-texnika yangilanishi ishchi kuchi samaradorligi moddiy resurslardan oqilona



foydalanish ishlab chiqarishda atrof-muhitga zarar yetkazmaslik kabilarning bo'lishi alohida etibor talab qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.B.Muxametov. B.Matrasulov.G.Turayeva T.:Buxgalteriya hisobi darslik. Ziyo nashr. 2023.-347 b
2. Muxametov, A., Matrasulov, B., Chorshanbiyev, U., & Abduvoxidov, A. (2024). Qayta ijaraga olish uchun asosiy vositalarni sotish hisobi. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(2), 182-191.
3. Gulizaxro, T., Mavlyuda, I., Shaxnoza, A., & Hilola, S. (2023, April). Buxgalteriya hisobi fanini rivojlanishida raqamlashtirishni takomillashtirish. In "Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 4, pp. 102-104).
4. Gulizahro, T., Iroda, O., & Sevara, M. (2023). Pul mablag 'larining korxona iqtisodiyotida tutgan o 'rni." *Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari" mavzusidagi onlayn konferensiyasi*, 2(10), 45-47.
5. Saodat, I., & Ma'suda, E. (2023, April). BILINGVIZM TURLARI VA IKKINCHI TIL LEKSIK BAZASI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).
6. Israilova, S. (2023). THE PRAGMATIC OCCURRENCE AND MENTAL PROPERTIES OF COLOR COMPONENT UNITS IN CONTEXT. Interpretation and researches, 1(5).
7. Otajanova, M. (2021). A UNIQUE ARTISTIC INTERPRETATION OF THE ETHNOCULTURAL VALUES OF THE TURKIC PEOPLES. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(06), 108-115.
8. Omanboyevna, O. M. (2023). MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VOSITALARI. Science and innovation, 2(Special Issue 9), 21-25.
9. Israilova, S. (2022). "KO 'K" LEKSEMASI SEMANTIKASINI YORITISHDA TEZAURUS MODELIDAN FOYDALANISH. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).
- 10.qizi To'yeva, M. S. (2022, November). YANGI O 'ZBEKİSTON ORİFA AYOLLARI VA G 'ARB AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYI VA ULARNING HUQUQLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
- 11.Рахматуллаева, Ф., & Шаробиддинов, А. (2023). YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO 'LLARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/4), 140-146.